

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

## Doimiy aholi soni.

Namangan viloyati doimiy aholisi soni 2021- yil 1- yanvar holatiga 2867,4 ming kishini tashkil etib, 2020- yil boshidan 56,6 ming kishi ga yoki 2,0 % ga o'sdi. Jumladan, shahar aholisi soni 1852,9 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 64,6 %), qishloq aholisi soni 1014,5 ming kishini (35,4 %) tashkil etdi.

## E'tibor bering: 2020- yil yanvar-dekabr

- Aholi soni **56,6 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **74,7 ming nafarni** tashkil etdi.
- **13,5 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **25,0 mingta nikoh** va **2,1 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

## Namangan viloyati aholisining umumiyl o'sishi (2020- yil yanvar-dekabr oylarida)

Tirik  
tug'ilganlar  
**74,7**  
ming bola

Tabiiy o'sish  
**+61,2**  
ming kishi

Vafot  
etganlar  
**13,5**  
ming kishi

Aholining  
umumiyl  
o'sishi  
**56,6**  
ming kishi

Ko'chib  
kelganlar  
**3,6**  
ming kishi

Mexanik o'sish  
(kamayish)  
**4,5**  
ming kishi

Ko'chib  
ketganlar  
**8,1**  
ming kishi


## Demografik holat

### Namangan viloyati bo'yicha aholi zichligi (2021- yil 1- yanvar holatiga, 1 kv.km.ga kishi)



Aholi zichligi bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, Namangan viloyati bo'yicha 1 kv.kmga 385,2 kishi, aholining eng zich joylashuvi Namangan shahri (1 kv.kmga 4267,3 kishi), Namangan (898,2 kishi), To'raqo'rg'on (843,6 kishi) tumanlarga to'g'ri kelgan bo'lsa, aksincha holat Pop tumanida (76,5 kishi) va Mingbuloq tumanida (173,4 kishi) to'g'ri kelmoqda.

### Namangan viloyati doimiy aholisi soni (2021- yil 1 yanvar holatiga ming kishi)



## Demografik holat


### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola **tirik tug'ilgan hisoblanadi**. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

**Tug'ilish.** 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida 74,7 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 26,3 promilleni tashkil etdi hamda 2019 yilning mos davriga nisbatan 0,5 promillega oshganligi (2019- yilning yanvar-dekabr oylarida 25,8 promille bo'lgan) kuzatildi.



**Tumanlar (shahar) kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti**  
(2020- yil yanvar-dekabr, 1000 aholiga nisbatan, promille)




## Demografik holat

**Vafot etganlar.** 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida 13,5 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,8 promilleni tashkil etdi, 2019- yilning mos davriga nisbatan manfiy 0,3 promillega o'sgan. (2019- yilning yanvar-dekabr oylarida 4,5 promille bo'lgan).



**Tumanlar (shahar) kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti**  
(2020- yil yanvar-dekabr, 1000 aholiga nisbatan, promille)




## Demografik holat

**Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni.** 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida 776 ta o'lim, 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 10,6 promilleni tashkil etdi.



**Tumanlar (shahar) kesimida 1 yoshgacha vafot etganlar soni va koeffitsiyenti**  
(2020- yil yanvar-dekabr, 1000 aholiga nisbatan, promille)




## Demografik holat

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 56,9 %i - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,1 %i - o'simtalardan, 4,5 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,6 %i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 7,4 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 3,7 %i - yuqumli va parazitar kasalliklaridan hamda 13,8 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 776 nafarni tashkil etib, ularning 28,7 %i - perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 36,2 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 18,8 %i - tug'ma anomaliyalardan, 1,8 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 9,8 %i - yuqumli va parazitar kasalliklardan va 4,7 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (2020- yil yanvar-dekabr holatiga, jami vafot etganlarga nisbatan, %)




## Demografik holat

**Nikoh.** 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 25,0 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 8,8 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2019- yilning mos davriga nisbatan Chust tumanida 113 taga va Namangan tumanida 2 taga ko'paygan. Qolgan shahar, tumanlarda kamaygan.

### Tumanlar (shahar) kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti (2020- yil yanvar-dekabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)




■ Tuz'ilgan nikohlar      ● Nikoh tuzish koeffitsiyenti



**Nikohdan ajralishlar.** 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 2104 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 0,7 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar sonida 2019- yilning mos davriga nisbatan To'raqo'rg'on tumanida 16 taga ko'paygan. Qolgan shahar, tumanlarda kamaygan.

### Tumanlar (shahar) kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti (2020- yil yanvar-dekabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



**Migratsiya.** 2020- yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 3,6 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 8,1 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 4,5 ming kishi bo'lib, 2019- yilning mos davrida minus 1,4 ming kishi bo'lган.


### Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr
<b>Ko'chib kelganlar</b>	5,0	3,6
<b>Ko'chib ketganlar</b>	6,4	8,1
<b>Migratsiya saldosi</b>	-1,4	-4,5




## Demografik holat

### Tumanlar (shahar) kesimida ko'chib kelganlar soni



### Tumanlar (shahar) kesimida ko'chib ketganlar soni



**Namangan shahridagi demografik holat.** Namangan viloyatining markazi Namangan shahrining doimiy aholisi soni 2021- yil 1- yanvar holatiga 640,1 ming kishini tashkil etib, 2019- yilga nisbatan 14,0 ming kishiga yoki 2,2 %ga o'sgan.

### **Namangan shahri aholisi tabiiy harakati (1000 aholiga nisbatan, promille)**

2019 -yil	2020- yil
<b>Tug'ilish</b>	<b>18,7</b>
 	
<b>17,6</b>	
<b>O'lim</b>	<b>3,2</b>
	
<b>3,0</b>	
<b>Tabiiy o'sish</b>	<b>15,5</b>
	
<b>14,6</b>	

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida 18,7 ming bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib mos ravishda tug'ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 29,6 promilleni tashkil etdi va 2019- yilga nisbatan 1,2 ga (2019- yilning mos davrida 28,4 promille bo'lgan) o'sdi.

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida 3,2 ming ta o'lim qayd etilgan. O'lim koeffitsienti 5,1 promilleni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega ko'paydi (2019- yilning mos davrida 4,9 promille bo'lgan).

FHDYO organlarida 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida 4896 ta nikoh va 411 ta nikohdan ajralishlar qayd etildi. 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 7,7 promilleni tashkil qilib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 1,8 promillega kamaydi. (2019- yilning mos davrida 9,5 promille bo'lgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 0,6 promilleni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega (2019- yilning mos davrida 0,8 promille bo'lgan) kamaydi.

## Namangan shahridagi demografik holat.

